

## TALABA QIZLARNING DARS DAN TASHQARI VAQTINI MAZMUNLI TASHKIL ETISH

*Gulsanam Hasanova Jahongir qizi*

*Talaba, O`zbekiston Davlat Juhon Tillari Universiteti*

*Ingliz filologiyasi fakulteti*

*E-mail: gulsanamhasanova@283gmail.com*

*Mobil telfon raqami: +998 93 565 79 81*

**Annotatsiya:** Bugungi kun nuqtai Nazari bilan qaraganda, universitet hayoti talaba qizlar uchun to`la-to`kis ilmiy yoxud hayotiy bilimlarni o`rgatish va ularning mustaqil hayotga qadam qo`yishlari uchun fundamental ko`nikma yaratib bera olish uchun yetarlicha bazaviy muhitga ega. Biroq, shuni ta`kidlash joizki, universitet oilasi ya`ni o`qituvchilar va tutorlar talaba qizlarning faqat dars jarayonini nazorat qilish huquqiga egadirlar. Shu bilan birgalikda, talaba qizlarning bo`sh vaqtlanini, bir so`z bilan aytganda darsdan tashqari paytalarini o`zлари uchun samarali mashg`ulotlar bilan o`tkazishlari uchun nimalarni tashkillashtirish mumkin? Talaba qizlar o`rtasida foydali ish koeffitsiyentini oshirishga qaratilgan biz bilmagan yoxud qiziqmagan qanday faktorlar mavjud? Kimning nutqidan uzatilgan maslahat va tavsiyalar bu dolzarb masala uchun yechimga ega? Maqolamning maqsadi ushbu savollarni batafsil yoritib berish va eng to`g`ri xulosalarni siz bilan o`rtoqlashishdan iborat.

**Kalit so`zlar:** Mazmunli 7 kun, karyera markazlari, talaba FM radiosи, ma`naviyat va ma`rifat markazlari, ijtimoiy tarmoqlar va web sahifalar.

**Kirish:** Talabalikda bayram kechalari ko`pchilik talabalar uchun o`yin-kulgi va dam olishning asosiy vositalaridan biridir. Shunga qaramay, talabalarning faqat 30% i imkon qadar bazmlarga qatnashadi. Ijtimoiy tarmoqlarda haftasiga doimiy ravishda olti yoki undan ko`p vaqt o`tkazadigan talabalar soni 2016-yilda 40% ga, 2018-yilda esa 70% ga ko`tarildi. Kerakli materillar bilan bir qatorda, talabalar o`z qiziqishlari uchun ko`p o`qiydilar. Bunga ishonish qiyin bo`lishi mumkin, ammo Barnes & Noble kolleji ma`lumotlariga ko`ra, talabalarning taxminan 65% i haftasiga besh soatgacha kitob o`qiydi. Yuqorida faktlardan shuni anglash mumkinki, har bir talabaning o`z qiziqishi avvalo ichki motivatsiya bilan uyg`onadi. O`bek talaba qizlari bilan Amerikalik talaba qizlarning ilmiy jihatdan salohiyati aslida bir xil. Ular qabul qilgan bilimlarni biz o`zbek qizlari bemalol qabul qila olamiz, nafaqat shunday, balki ulardan ustun taraflarimizni ham yuksaltira olamiz. Faqat bizning aksariyat talaba qizlarimizning ilm olish jarayoni universitet yoxud institutga kirishga, talabalik guvohnomasini olishga qadar davom etadi. Amerikada yoki boshqa rivojlangan mamlakatlarda esa universitetga kirdi degani, o`ish va izlanish nihoyasiga yetdi, endi

faqat turmushga tayyorgarlik ko`rish degani emas. Ular izlanishadi, yanada ko`proq ilm cho`qqilarini egallashga, magistrature, doktarantura, PHD bosqichlari uchun o`z tajribalarini boyitib borishadi. Bizning ko`pchilik talaba qizlarimizda esa yuqoridagi holatini kuzatish mumkin. Buning sababi nimada deb o`ylaysiz? Hech ikkilanmay aytish mumkin, bu muammoni keltirib chiqargan masala talaba qizlarimizning darsdan tashqari vaqtlarini to`g`ri taqsimlay olmayotganliklarida va albatta, o`zlarining ilmiy jihatdan reytinglarini yuqori pog`onalarga ko`tarish uchun e`tibor cheklanganliklarida.

Biz talaba qizlar o`rnak olishimiz kerak bo`lgan insonlar hayotiga ham qiziqish bilan qarashimiz lozim. Misol uchun Aziza Shonazarova Kolumbiya Unerisitet Professori, 500 nafar doktorant ichidan professorlikka nomzodi loyiq ko`rilgan. Aziza Shonazarova o`z nutqida shunday deydi: “Biz talaba qizlarimizning kitobga mehrini kuchaytirsak bo`lgani, shu ishni amalga oshirsak yetarli. Ya`ni ulkan bir, hali dunyo ko`rmagan innovatsion loyihalar qilishimizga hojat yo`q”. Chindan ham talaba qizlarimizni ilm Makoni bo`lgan kutubxonalarimiz kutib turibdi. Teslada ishlayotgan ilk o`zbek qizi Mushtariybonu Sharifova xalqaro kompaniya menejeri bo`lishga qanday erishdi? Albatta, faqatgina universitet bilimlari bilan cheklanib qolmagan. O`z hayotini to`g`ri bir strategiya asosida qura oldi. Talaba qizlarimizning darsdan so`ng vaqtini maroqli va mazmunli o`tkazishda nimalar eng muhim omil vazifasini bajaradi?

Asosiy qism: Talaba qizlarimiz uchun darsdan so`ng turli xil mavzular bo`yicha keng qamrovli seminarlar tashkil etish, har tomonlama erkin fikrlash qobiliyatini o`stiradi. Qizlarning seminarlardagi faol ishtiroki, ularning dunyo minbarlarida ham erkin so`zlashlari uchun zamin yaratadi. Universitetlar aro “Mazmunli 7 kun “loyihasini tashkil etish ham talaba qizlarimizning ma`naviyatini yuksaltirishda asosiy omil vazifasini bajaradi. Hozirgi kunda “O`zMU zakovat” klubi, “Kreativ talabalar” teatr studiyasi, “Dutorchi qizlar” ansambli, “Talaba FM” radiosи kabi turli xil tadbirlarda faol ishtirok etish talaba qizlarimiz salohiyatining o`sib borishida samarali ko`makchi vositasini bajaradi. OTM larda “Karyera markazlari” tashkil etish orqali talaba qizlarimizning ish uslublarini mukammal o`rganishlarida, shunindek o`zlarining shaxsiy karyeralariga mustahkam poydevor o`rnatishlarida o`z hissamizni qo`shgan bo`lamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish va ularning bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo`yicha joriy qilgan 5 ta muhim tashabusning oxirgi bosqichida ko`zda tutilgan maqsad ham xotin-qizlarni ish bilan ta`minlash, ularning bo`sh vaqtlarini ma`naviy jihatdan dolzarb bo`lgan mashg`ulotlarga qartishdir.

Yana shuni ta`kidlash joizki, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta`lim tizimida ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora tadbirlari to`g`risida” gi qaroriga ko`ra, Toshkent Shahar Olmazor tumanidagi Talabalar shaharchasida joylashgan sobiq “Fudziyama” kafesi binosini tegishli hududi bilan birga O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi huzuridagi “

Ma`naviyat va ma`rifat” markaziga operativ boshqarish huquqi asosida bepul berish taklifi ma`qullangan. Shuningdek, mazkur obektda markaz tarkibidagi talabalarning media ijtimoiy faoliyatini va madaniy dam olish maskanini tashkil etish masalasi haqida ham gap bormoqda.

O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi huzuridagi “Ma`naviyat va ma`rifat” markazi faoliyatini takomillashtirish hamda talaba va o`quvchilarning darsdan tashqari bo`sh vaqtini mazmunli va effektiv tashkil etish chora tadbirlari dasturida belgilangan tadbirlarni o`z vaqtida samarali amalga oshirish masalasi qayta ko`rib chiqiladi. Vazirlar Mahkamasiga ko`ra, Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi bir oy muddatda markazning yangi tahrirdagi ustavini ishlab chiqishi va belgilangan tartibda tasdiqlashi kutilmoqda. Talaba qizlarning eng asosiy vaqtlarini badiiy kitob mutolaasiga qaratish lozim. Tavsiya qilinadigan eng muhim top 10 talik kitoblar ro`yxati quyidagilar:

1. “Sohilsiz dengiz” Ahmad Muhammad Tursun.
2. “Ota” Ulug`bek Hamdam
3. “Shabnam soyasida” Uyg`un Ruziyev
4. “Olim yetishtirgan onalar” Murat Tosun
5. “Halol Luqma” Rauf Jillsun
6. “Oybegim mening” Zarifa Saidnosirova
7. “Oila” Fitrat
8. “Great women of Islam” Mahmud Ahmad Ghodnafar
9. “Qalb iffati” Nuriya Chelen
10. “Har ayol hojardir” Nuriya Chelen

Nazarda tutmoqchi bo`lgan fikrim shundan iboratki, talaba qizlarimiz bo`sh vaqtlarida yuqorida sanab o`tilgan badiiy adabiyotlarni mutolaa qilsalar, ularning ruhiy olami shu qadar rivojlanadiki va bu orqali yurtimiz kelajaginining ravnaq topishi uchun zamin yaratiladi.

Xulosa. “Biz o`z faoliyatimizning ilk kunlaridan boshlab munis va mo`tabar ayollarimizning og`irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta`minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish masalasini davlat siyosatining muhim yo`nalishi sifatida belgiladik” – deb ta`kidlagan edi o`z nutqida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Barcha islohotlarimizning mazmuni “Inson Qadri uchun” tamoyilining mohiyatini ochib berishdan iborat. Ya`ni biz xalqimizn bizdan rozi bo`lishini istasak, avvalo, mo`tabar onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimiz turmush sharoitini yaratib berishimiz kerak. Yangi O`zbekiston taraqqiyoti strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo`llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo`nalishlardan biri sifatida bejiz belgilamadik. Ya`ni talaba qizlarimizning vaqtlarini to`g`ri taqsimlash uchun qaratilgan barcha chora-tadbirlarning hukumatimiz tomonidan qo`llab-quvvatlanishi

ularning yutuqlarini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda talaba qizlar uchun yaratilgan imkoniyatlar o`z samarasini ko`rsatadi. Ularning har xil oqimlarga kirib qolmasliklarining oldini olish va turli xil xorijiy davlat fuqarolari bilan aloqalarini nazoratda tutish ham ilk navbatda ularning bavdligini ta`minlashga bog`liq.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- \* [facsllegends.org](http://facsllegends.org) va [campusadv.commateriallari](http://campusadv.commateriallari)
- \* 26.04.2018-yil. Muassis: “Xalq so`zi” va “Narodnoye Slovo”
- \* [daryo.uz](http://daryo.uz)
- \* [mitc.uz.news](http://mitc.uz.news)
- \* [tfi.uz.news](http://tfi.uz.news)
- # ijtimoiy tarmoqlar #talaba